

15-Oktyabr, 2025-yil

**O‘ZBEKISTONDA FERMER XO‘JALIKLARI FAOLIYATINI
OPTIMALLASHTIRISH VA YER MAYDONLARIDAN SAMARALI
FOYDALANISH YO‘NALISHLARI**

Raxmatullayeva Donoxon Alimbayevna

Abdurashidova Muqaddasxon Abdug‘ani qizi

“O‘zdavyerloyiha” DILI, “Toshvilyerloyiha” bo‘linmasi mas‘ul xodimi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda agrar sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida fermer xo‘jaliklarining rivojlanishi, ularning faoliyatini optimallashtirish hamda yer resurslaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda fermer xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorligini oshirish, yer va suv resurslarini tejash, tuproq unumdorligini saqlash va qayta tiklash bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tahlil qilingan. Shuningdek, statistik ma‘lumotlariga asoslanib, fermer xo‘jaliklarining ixtisoslashuvi, yer maydonlarining taqsimlanishi va ulardan foydalanish samaradorligi haqida umumlashtirilgan xulosalar berilgan. Maqolada yer resurslaridan oqilona foydalanish, innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash hamda mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda fermer xo‘jaliklarining o‘rni amaliy misollar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: fermer xo‘jaligi, agrar islohot, yer resurslari, suv resurslari, unumdorlik, samaradorlik, agroiqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, hosildorlik, yer unumdorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligi, raqamli qishloq xo‘jaligi.

Аннотация. В данной статье освещены вопросы развития фермерских хозяйств, оптимизации их деятельности и эффективного использования земельных ресурсов в результате реформ, проводимых в аграрном секторе Узбекистана. В исследовании проанализированы меры по повышению экономической эффективности фермерских хозяйств, экономии земельных и водных ресурсов, сохранению и восстановлению плодородия почв. Также на основе статистических данных даны обобщенные выводы о специализации фермерских хозяйств, распределении земельных площадей и эффективности их использования. В статье на практических примерах освещается роль фермерских хозяйств в рациональном использовании земельных ресурсов, внедрении инновационных агротехнологий, обеспечении экологической устойчивости и укреплении продовольственной безопасности страны.

Ключевые слова: фермерское хозяйство, аграрная реформа, земельные ресурсы, водные ресурсы, продуктивность, эффективность, агроэкономика, сельское хозяйство, урожайность, повышение плодородия почвы, продовольственная безопасность, цифровое сельское хозяйство.

KIRISH

O‘zbekiston agrar sohasida olib borilayotgan islohotlar mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biridir. Yer resurslaridan to‘g‘ri foydalanish, ularning unumdorligini oshirish hamda ekologik muvozanatni saqlash bugungi kunning eng dolzarb masalalari hisoblanadi. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish maqsadida yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, hosildorlikni barqarorlashtirish, yer degradatsiyasining oldini olish yo‘nalishlarida amaliy tajribalar keng joriy etilmoqda. Fermer xo‘jaliklari faoliyatida suv tejovchi texnologiyalar, agrotexnik tadbirlarning rejalashtirilgan tizimi, organik o‘g‘itlardan foydalanish va yerlarni lazer usulida tekislash kabi innovatsion yondashuvlar yaxshi natijalar bermoqda.^[1]

S tatistik ma’lumotlariga ko‘ra, suv va yer resurslarini tejash texnologiyalarini qo‘llayotgan xo‘jaliklar soni sezilarli darajada ortgan. Ayniqsa, tomchilatib sug‘orish usuli, eroziyaga qarshi chora-tadbirlar va almashlab ekish tizimining rivoji yer unumdorligini saqlab qolishga yordam bermoqda.

Yer resurslaridan samarali foydalanish nafaqat hosildorlikni oshiradi, balki tabiiy muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlash va tuproq tarkibini barqarorlashtirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, fermer xo‘jaliklari faoliyatini takomillashtirish jarayonida ilmiy asoslangan yondashuvlar, innovatsion texnologiyalar va tajribaviy ishlanmalar muhim ahamiyat kasb etadi.


Fermer xo‘jaliklarining rivojlanishi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, qishloq xo‘jaligida yangi xo‘jalik yuritish shakli – fermer xo‘jaliklari paydo bo‘ldi. Ular hozirda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy tayanchi hisoblanadi.

2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublikada **94369 ta** fermer xo‘jaligi mavjud. Ularning yo‘nalishlari quyidagicha: paxta-g‘allachilik – **28571 ta**, g‘allachilik – **6654 ta**, chorvachilik – **9688 ta**, bog‘dorchilik – **24753 ta**, uzumchilik – **5 004 ta**, sabzavotchilik va polizchilik – **11560 ta**, baliqchilik – **3395 ta**, asalarichilik – **210 ta**, parrandachilik – **937 ta** hamda boshqa yo‘nalishlarda **1718 ta** xo‘jalik faoliyat yuritmoqda.

Quyidagi grafikda 2018–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida fermer xo‘jaliklari sonining o‘zgarishi aks etgan. 2018–2019 yillarda fermer xo‘jaliklari soni 153385 tadan 154331 tagacha biroz oshgan, biroq 2020 yilda ularning soni keskin kamayib, 84222 tani tashkil qilgan. Keyingi yillarda esa fermer xo‘jaliklari soni asta-sekin ortib borgan — 2021 yilda 90739 ta, 2022 yilda 91829 ta, 2023 yilda 93644 ta, 2024 yil 1 yanvar holatiga 94369 taga yetgan.

Umuman olganda, grafikdan ko‘rinib turibdiki, 2020 yildagi qisqarishdan so‘ng fermer xo‘jaliklari soni barqarorlashgan va oxirgi yillarda ularning sonida o‘sish tendensiyasi kuzatilmoqda (1-grafik).

15-Oktyabr, 2025-yil




1- grafik. Respublikada fermer xo‘jaliklari sonining o‘zgarishi (soni).

Fermer xo‘jaliklariga jami 4,6 million gektar yer maydoni ajratilgan. Shundan 2,87 million gektar ekin yerlar, 281 ming gektar ko‘p yillik daraxtzorlar, 912 ming gektar yaylov va pichanzorlar tashkil etadi.

2-grafikda 2018–2024 yillar oralig‘ida O‘zbekiston Respublikasida fermer xo‘jaliklariga ajratilgan yer maydonlarining o‘zgarishi ko‘rsatilgan. 2018 yilda umumiy yer maydoni 6839,4 ming gektarni tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilda bu ko‘rsatkich 7331 ming gektarga yetgan. Shu davrda yer maydoni eng yuqori darajaga chiqqan.

Biroq 2021 yildan boshlab yer maydonlari hajmi kamaygan — 2021 yilda 5463,6 ming gektar, 2022 yilda 4791,1 ming gektar, 2023 yilda 4 695,1 ming gektar, 2024 yil 1 yanvar holatiga esa 4621,5 ming gektarni tashkil etgan.

Umuman olganda, grafikdan ko‘rinadiki, so‘nggi yillarda fermer xo‘jaliklari soni ortgan bo‘lsa-da, ularga ajratilayotgan yer maydonlari hajmi kamaygan. Bu esa yer resurslaridan yanada tejamkor va oqilona foydalanish zaruratini ko‘rsatadi. (2-grafik). ^[2]



2-grafik. Respublikada fermer xo‘jaliklari yer maydonlarining o‘zgarishi (ming ga.).

Yer resurslaridan samarali foydalanish yo‘nalishlari. Fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligining asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi bo‘lib, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Ularning samarali faoliyat yuritishi, eng avvalo, yer resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va ishlab chiqarishni

15-Oktyabr, 2025-yil

to‘g‘ri boshqarishga bog‘liqdir. Quyida fermer xo‘jaliklari faoliyatini takomillashtirish uchun e‘tibor qaratilishi lozim bo‘lgan asosiy yo‘nalishlar keltirilgan.

1. Yer unumdorligini saqlash va oshirish. Yer unumdorligini saqlab qolish va uni yanada oshirish barqaror qishloq xo‘jaligining eng muhim shartidir. Tuproqning tabiiy xususiyatlarini asrash, sho‘rlanish, eroziya va qurg‘oqchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini kuchaytirish zarur. Shu bilan birga, organik o‘g‘itlardan foydalanish, almashlab ekish tizimini yo‘lga qo‘yish va biologik usullarda tuproqni tiklash kabi ekologik toza yondashuvlar yuqori samara beradi. Yerlarning lazer uskunalari yordamida tekislanishi suvning teng taqsimlanishiga, demak, hosildorlikning oshishiga sabab bo‘ladi.

2. Suv resurslaridan oqilona foydalanish. Suv tanqisligi sharoitida har bir tomchi suvning qadriga yetish muhim. Shu maqsadda suvni hisobga olish tizimlarini joriy etish, tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini kengaytirish, sug‘orish tizimlarida yo‘qotishlarni kamaytirish bo‘yicha zamonaviy yechimlar zarur. Bundan tashqari, suvni qayta foydalanish va suv manbalarini ifloslanishdan himoya qilish choralarini kuchaytirish fermerlar faoliyatining muhim yo‘nalishiga aylanishi kerak.

3. Fermer xo‘jaliklarini rag‘batlantirish. Fermerlarning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish ularning faoliyat samaradorligini belgilaydi. Shu sababli hosildorlik darajasiga qarab differensial soliq tizimini qo‘llash, kredit, subsidiya va grantlar orqali qo‘llab-quvvatlash, shuningdek qishloq xo‘jaligi sug‘urtasi tizimini kengaytirish katta ahamiyatga ega. Rag‘batlantirish mexanizmlarining samarali ishlashi natijasida fermerlar yangi texnologiyalarni tatbiq etishga va resurslardan tejamkor foydalanishga intiladi.

4. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish. Zamonaviy texnika va uskunalardan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Dronlar yordamida kuzatuv ishlari, yer namligini o‘lchash asboblari, avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari va raqamli hisob-kitob dasturlari fermerlarga aniq ma‘lumot asosida qaror qabul qilish imkonini beradi. Bunday yondashuv vaqt, suv va mehnat resurslarini tejaydi, hosildorlikni oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi.^[3]

Xulosa. Fermer xo‘jaliklari O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining asosiy tayanchi bo‘lib, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ularning barqaror va samarali faoliyat yuritishi nafaqat ichki bozorni sifatli mahsulot bilan ta‘minlash, balki eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Yer maydonlaridan oqilona va tejamkor foydalanish, suv resurslarini tejash, tuproq unumdorligini saqlash hamda hosildorlikni oshirish – bu sohada muvaffaqiyat kalitidir. Shu bilan birga, zamonaviy texnika va ilg‘or agrotexnologiyalarni joriy etish, urug‘chilikni takomillashtirish, organik o‘g‘itlardan keng foydalanish va ekologik barqaror ishlab chiqarish tizimini shakllantirish fermer xo‘jaliklari rivojini yangi bosqichga olib chiqadi.

Fermer xo‘jaliklari o‘rtasida tajriba almashish, o‘quv-seminarlar tashkil etish, agronomik maslahat xizmatlarini kuchaytirish ham ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, infratuzilmani rivojlantirish, bozor infratuzilmasini yaxshilash, logistika va saqlash tizimlarini kengaytirish ham fermerlarning barqaror daromad olishini ta‘minlaydi.^[4,5]

15-Oktyabr, 2025-yil

Umuman olganda, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, ilmiy asoslangan yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash orqali fermer xo‘jaliklari O‘zbekiston agrar sohasining poydevori sifatida yanada rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun, 30.04.1998;
2. O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to‘g‘risida “Milliy hisobot” Toshkent – 2024;
3. A.R.Babajanov, S.B.Ro‘ziboev, B.X.Majitov, “Yerdan foydalanish asoslari” O‘quv qo‘llanma.T.: TIQXMMI, 2018;
4. B.Raximov, Sh.To‘xtayev, “Fermer xo‘jaliklarini boshqarish asoslari” – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020;
5. A.Normatov, “Yer resurslaridan oqilona foydalanish masalalari” – Toshkent: Fan, 2022.

Global
Science
Publication